

*Kushakova M.N.*  
*Korporativ boshqaruv kafedrasida dotsent v.b.*  
*Toshkent davlat transport universiteti*  
*Mamatkulov X.*  
*BHT-2 guruh 4-bosqich talabasi*  
*Toshkent davlat transport universiteti*

**AHOLI MOLIVAVIY SAVODXONLIGI O'SISHINING  
TADBIRKORLIK FAOLIYATI VA DAROMADLAR DARAJASINING  
OSHISHIGA TA'SIRI**

Annotatsiya: Moliyaviy savodxonlikning aholi daromadlariga ta'sirini baholash uchun mazkur holat bilan uzviy bog'liq bo'lgan aholi daromadlarining muayyan davr mobaynidagi o'zgarishini kuzatish maqsadga muvofiq, buning uchun avvalo moliyaviy savodxonlik ta'siri ahamiyatli bo'lgan aholi daromadlarining umumiy daromadlardagi ulushini aniqlash muhimdir.

Kalit so'zlar: Tadbirkorlik, daromad, aholi, savodxonlik, ulush.

*Kushakova M.N.*  
*Associate Professor of the Department of Corporate Management.*  
*Tashkent State Transport University*  
*Mamatkulov Kh.*  
*BHT-2 group 4th grade student*  
*Tashkent State Transport University*

**THE EFFECT OF INCREASE IN FINANCIAL LITERACY OF THE  
POPULATION ON THE INCREASE IN BUSINESS ACTIVITY AND THE  
LEVEL OF INCOME**

**Abstract:** In order to assess the impact of financial literacy on the income of the population, it is appropriate to monitor the change in the income of the population over a certain period of time, which is inextricably linked with this situation, for this, first of all, the share of the income of the population in the total income, which is significantly affected by financial literacy important to identify.

**Key words:** Entrepreneurship, income, population, literacy, share.

Mikromoliyalashtirish sohasini yanada rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish maqsadida, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 yanvardagi "Iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va iqtisodiy siyosat samaradorligini oshirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5614-son Farmoni bilan belgilangan vazifalarga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan moliyaviy ommaboplik sohasidagi ilg'or xalqaro tajribani hisobga olgan holda tarkibida moliyaviy xizmatlar ommabopligini kengaytirishni, aholi va tadbirkorlik sub'ektlarining moliyaviy savodxonlik darajasini oshirishni, moliyaviy xizmatlar iste'molchilari huquqlarini himoya qilishni nazarda tutuvchi Moliyaviy ommaboplikni oshirishning milliy strategiyasini (keyingi o'rinlarda – Milliy strategiya) ishlab chiqishga Jahon bankingning texnik ko'magi jalb etildi.

Aholi moliyaviy savodxonligining o'sishi uning o'z moliyaviy mablag'larini rejalashtirish, daromad va xarajatlarini tartibga solish, turli moliyaviy instrumentlardan foydalana olish borasidagi bilim, malaka va ko'nikmalarining kengayib va takomillashib borishini anglatar ekan, bu o'z navbatida mamlakatdagi tadbirkorlik faoliyati va aholi daromadlar darajasini oshirishga o'z ta'sirini ko'rsatadi (1-jadval).


Jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, tahlil qilinayotgan davrda aholining nominal umumiy daromadlari 2014 yildagi 117,9 trln. so'mdan 2020 yilda 401,5 trln. so'mga qadar, ya'ni 3,4 marta o'sgan. Aholi umumiy daromadlarining nominal o'sish sur'ati bir tekisda bormay, bu ko'plab omillar, jumladan, daromadlar uchun

qulay shart-sharoitlar, narxlar umumiy darajasining o'zgarishi kabi omillarning ta'sirida ro'y bergan.

### 1-jadval. O'zbekistonda aholi umumiy daromadlari dinamikasi

Кўрсаткич	2014	2015	2016	2017	2018	2019	2020
Аҳолининг номинал умумий даромадлари, трлн. сўм	117,9	132,0	151,7	183,0	286,3	344,7	401,5
Аҳоли умумий даромадларининг номинал ўсиш суръати, фоиз	116,0	112,0	114,9	120,6	156,4	120,4	115,9
Аҳолининг реал умумий даромадлари, трлн. сўм	110,8	125,1	143,7	167,1	243,6	301,0	355,5
Аҳоли умумий даромадларининг реал ўсиш суръати, фоиз	109,0	106,1	108,8	110,2	110,3	106,5	102,6
Аҳоли жон бошига номинал умумий даромадлар, млн. сўм	3,8	4,2	4,8	5,6	8,7	10,3	11,7
Аҳоли жон бошига умумий даромадларининг номинал ўсиш суръати, фоиз	114,0	110,1	112,9	118,6	155,3	118,4	113,7
Аҳоли жон бошига реал умумий даромадлар, млн. сўм	3,6	4,0	4,5	5,2	7,4	9,0	10,4
Аҳоли жон бошига умумий даромадларининг реал ўсиш суръати, фоиз	107,1	104,3	106,9	108,4	108,4	104,5	100,7

Ayniqsa, bu ko'rsatkichning 2020 yilda nisbatan past bo'lishi ma'lum darajada jahondagi koronavirus pandemiyasi oqibatida kelib chiqqan iqtisodiy pasayishlarning ta'siri natijasi hisoblanadi. Bu holat aholining real umumiy daromadlari dinamikasida yaqqol namoyon bo'ladi. Tahlil davrida ushbu ko'rsatkich 3,2 marta o'sgan. Aholi umumiy daromadlarining real o'sish sur'ati 2019 yilga qadar o'rtacha 6 – 10 foiz atrofida bo'lsa, 2020 yilga kelib 2,6 foizga qadar pasaygan.



1-rasm. Aholi umumiy daromadlari tarkibi

Umumiy daromadlarning aholi jon boshiga nisbatan tahlili yana bir muhim omil – aholining tabiiy o‘shishi doirasidagi o‘zgarishlarni ifodalaydi. Tahlil davrida aholi jon boshiga umumiy daromadlar 3,1 marta o‘sgan bo‘lsa, real umumiy daromadlar 2,9 marta o‘sgan. Aholi jon boshiga umumiy daromadlarning real o‘shish sur‘ati 2019 yilga qadar o‘rtacha 4 – 8 foiz atrofida bo‘lsa, 2020 yilda 0,7 foiz darajasiga qadar pasaygan. Bu esa, yuqorida ta’kidlangan global pandemiyaning aholi daromadlari darajasiga salbiy ta’siri ahamiyatli bo‘lganidan dalolat beradi.

Umumiy holda, aholining moliyaviy savodxonligi darajasi yuqorida sanab o‘tilgan barcha turdagi daromadlarga muayyan darajada ta’sir qilsada, shu bilan birga, ular orasidan ahamiyatliroq ta’sirga ega bo‘lganlarini ham ajratib ko‘rsatish mumkin. Buning uchun, mazkur bog‘liqlikni yanada yaqqolroq namoyon etish

maqsadida aholi umumiy daromadlari tarkibining chizma ko‘rinishida tasvirlab olamiz (1-rasm).

2-jadval. Aholining asosiy turdagi daromadlarining moliyaviy savodxonlik bilan bog‘liqlik darajasi

Даромад турлари	Қисқача мазмуни	Молиявий саводxonликка боғлиқлик даражаси
Ёлланма ишчиларнинг даромади	меҳнатга ҳақ тўлашнинг яширин (яъни, бирламчи ва бухгалтерия ҳисобида акс эттирилмасдан иш берувчи томонидан амалга оширилган тўловлар) қисмини қўшган ҳолда пул ва натура (товарлар ёки хизматлар кўринишида) шаклида меҳнатга ҳақ тўлаш кўринишидаги даромадлар.	Паст
Мустақил равишда банд бўлишдан олинган даромад	мустақил равишда ташкиллаштирилган ва уй хўжалиги аъзолари жалб қилинган меҳнат жараёни натижасида олинган даромадлар.	Юқори
Шахсий истеъмол учун ўзида ишлаб чиқарилган хизматлардан олинган даромадлар	бозор учун мўлжалланмаган ва уй-жой эгалари томонидан фойдаланилаётган турар-жой хизматларининг шартли равишда ҳисобланган қиймати.	Паст
Мол-мулкдан олинган даромадлар (мулкий даромадлар)	мулкий эгалик қилиш ҳуқуқи бўлган молиявий ва номолиявий активларни бошқа шахсларга фойдаланиш учун беришдан уй хўжалиқларига тушган тушумлар.	Юқори
Трансфертлардан олинган даромадлар	уй хўжалиқларига бошқа уй хўжалиқларидан, давлат томонидан, юридик шахслардан, чет элдан келиб тушадиган ҳамда келгусида қайтарилиши шарт бўлмаган товарлар, хизматлар ва активлар.	Ўрта

Rasmdan ko‘rinadiki, aholining asosiy turdagi daromadlari tegishli raqamlar bilan ajratib ko‘rsatilgan. Ularning moliyaviy savodxonlik bilan bog‘liqlik darajasini aniqlash uchun quyidagi jadvaldan foydalanamiz (2-jadval).

Jadval ma’lumotlaridan ko‘rinadiki, daromad turlari ichida mustaqil ravishda band bo‘lishdan olingan daromad hamda mol-mulkdan olingan daromadlar aholi moliyaviy savodxonligi darajasiga nisbatan yuqori bog‘liq hisoblanadi. Chunki, mehnat jarayonini mustaqil ravishda tashkillashtirish hamda mulkni boshqa shaxslarga foydalanish uchun berishdan daromad olish nisbatan ko‘proq moliyaviy savodxonlikni taqozo etadi. O‘zbekistonda aholi umumiy daromadlari tarkibi va o‘tgan yilning mos davriga nisbatan o‘sish sur‘atini quyidagi jadval orqali ko‘rish mumkin (3-jadval).

### 3-jadval. O‘zbekiston Respublikasida aholi umumiy daromadlari tarkibi va o‘tgan yilning mos davriga nisbatan o‘sish sur‘ati

Kўrsatkich	Йиллар бўйича жамига nisbatan, foizda			Oldingi йилга nisbatan, foizda	
	2018 йил	2019 йил	2020 йил	2019 йил	2020 йил
Умумий даромадлар - жами (I+II)	100,0	100,0	100,0	121,9	115,9
I. Бирламчи даромадлар	76,1	74,9	74,5	119,7	115,3
I.1. Ишлаб чиқаришдан олинган даромадлар	73,0	72,0	71,5	118,9	115,0
I.1.1. Меҳнат фаолиятдан олинган даромадлар	71,0	69,8	69,3	118,7	115,1
I.1.1.1. Ёлланма ишчиларнинг даромадлари	26,4	28,7	28,8	125,1	116,3
I.1.1.2. Мустақил равишда банд бўлишдан олинган даромадлар	44,6	41,1	40,5	114,9	114,2
I.1.2. Шахсий истеъмол учун ўзида ишлаб чиқарилган хизматлардан олинган даромадлар	2,0	2,2	2,2	124,6	112,1
I.2. Мол-мулкдан олинган даромадлар	3,1	2,9	3,0	137,6	123,6
II. Трансфертлардан олинган даромадлар	23,9	25,1	25,5	129,1	117,6

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, tahlil davrida umumiy daromadlar tarkibidagi birlamchi daromadlarning ulushi pasayib, transfertlardan olingan daromadlarning ulushi o'sib bormoqda. Shuningdek, moliyaviy savodxonlik ta'siri ahamiyatli bo'lgan mustaqil ravishda band bo'lishdan olingan daromadlar hamda mol-mulkdan olingan daromadlarning ulushida ma'lum darajada beqarorlik kuzatilmoqda.

Fikrimizcha, moliyaviy savodxonlikning aholi daromadlariga ta'sirini baholash uchun mazkur holat bilan uzviy bog'liq bo'lgan aholi daromadlarining muayyan davr mobaynidagi o'zgarishini kuzatish maqsadga muvofiq. Buning uchun avvalo moliyaviy savodxonlik ta'siri ahamiyatli bo'lgan aholi daromadlarining umumiy daromadlardagi ulushini aniqlash muhim bo'lib, uni quyidagi formula orqali amalga oshirish mumkin:

$$DU_{MC} = \frac{D_{MB} + D_M + D_T}{UD} \times 100\% = \frac{\sum_{i=1}^n D_i}{UD} \times 100\%,$$

bu yerda:

$DU_{MS}$  – moliyaviy savodxonlik ta'siri ahamiyatli bo'lgan aholi daromadlarining umumiy daromadlardagi ulushi, foizda;

$DU_{MB}$  – mustaqil ravishda band bo'lishdan olingan daromadlar summasi;



$DU_M$  - mol-mulkdan olingan daromadlar summasi;

$DU_T$  - transfertlardan olingan daromadlar summasi;

$UD$  - umumiy daromadlar summasi;

$i$  - moliyaviy savodxonlik ta'siri ahamiyatli bo'lgan daromad turlari.

Shundan so'ng, moliyaviy savodxonlik ta'siri ahamiyatli bo'lgan daromadlar aholi umumiy daromadlaridagi ulushining muayyan davr mobaynidagi o'zgarishi quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$\Delta Y_{MC}^{\ddot{y}} = \Delta Y_{MCЖ} - \Delta Y_{MCб}$$

bu yerda:  $DUO_{MS}$  - moliyaviy savodxonlik ta'siri ahamiyatli bo'lgan daromadlar aholi umumiy daromadlaridagi ulushining muayyan davr mobaynidagi o'zgarishi, foiz punktida;

$DUO_{MSJ}$  - joriy davr uchun moliyaviy savodxonlik ta'siri ahamiyatli bo'lgan aholi daromadlarining umumiy daromadlardagi ulushi, foizda;

$DUO_{MSB}$  - bazis davr uchun moliyaviy savodxonlik ta'siri ahamiyatli bo'lgan aholi daromadlarining umumiy daromadlardagi ulushi, foizda.

Shu o'rinda ta'kidlash kerakki, moliyaviy savodxonlik ta'siri ahamiyatli bo'lgan aholi daromadlari manbalaridan biri bu mustaqil ravishda band bo'lishdan olingan daromadlar hisoblanadi. Chunki, o'z shaxsiy mehnatiga asoslangan va mustaqil ravishda tashkil etilgan mazkur faoliyat turiga keyingi yillarda e'tibor kuchayib bormoqda.

Jumladan, "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 8 iyun kuni "Tadbirkorlik faoliyati va o'zini o'zi band qilishni davlat tomonidan tartibga solishni soddalashtirish choratadbirlari to'g'risida" [4] gi qarori qabul qilindi. Unga ko'ra, 2020 yil 1 iyuldan boshlab o'zini o'zi band qilgan shaxslar shug'ullanishi mumkin bo'lgan faoliyat turlari kengayib, ular soni 67 taga yetdi. Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 9 iyuldagi 566-son qarorida o'zini o'zi band qilgan fuqarolar faoliyat (xizmatlar, ishlar) turlari 24 ta etib belgilangan edi.

**5-jadval. Hududlar bo'yicha mustaqil ravishda band bo'lishdan olingan daromadlarning 1% ga o'sishini aholi umumiy daromadlari hajmining o'sishiga ta'siri, foizda [2]**

Худудлар	2018 йил	2019 йил	2020 йил
Жиззах	0,61	0,62	0,59
Бухоро	0,53	0,52	0,49
Сурхондарё	0,54	0,52	0,48
Сирдарё	0,52	0,50	0,48
Андижон	0,53	0,49	0,47
Қашқадарё	0,50	0,49	0,47
Наманган	0,51	0,48	0,46
Самарқанд	0,53	0,50	0,46
Тошкент	0,50	0,49	0,45
Навоий	0,46	0,46	0,43
Хоразм	0,47	0,46	0,42
Фарғона	0,46	0,47	0,42
Қорақалпоғистон Респ.	0,36	0,37	0,35
Тошкент ш.	0,20	0,17	0,15

Ushbu hujjatda 2020 yil 1 iyulga qadar Davlat soliq qo'mitasiga o'zini o'zi band qilgan shaxslarni masofadan ro'yxatga olish uchun maxsus mobil ilova ishlab chiqish va uni amaliyotga tatbiq etish vazifasi yuklatildi".

Moliyaviy savodxonlikning aholi daromadlariga ta'sirini tahlil qilishda aholi umumiy daromadlari tarkibida mustaqil ravishda band bo'lishdan olingan daromadlarning ulushini ham baholash muhim hisoblanadi (5-jadval).

Jadvalda mamlakatimiz hududlari bo'yicha mustaqil ravishda band bo'lishdan olingan daromadlarning 1% ga o'sishini aholi umumiy daromadlari hajmining o'sishiga ta'siri ifodalangan. Ma'lumotlardan ko'rinadiki, aksariyat hududlarda daromadlarning o'sishi ta'siri qiymati izchil ravishda pasayib bormoqda. Faqat Jizzax, Farg'ona viloyatlari va Qoraqalpog'iston Respublikasida ushbu ko'rsatkich o'zgarishida biroz noizchilik kuzatiladi.

Mazkur ko'rsatkichning pasayib borishi aholi moliyaviy savodxonligini oshirish orqali mustaqil ravishda band bo'lishdan olingan daromadlar salmog'ini ko'paytirish zaruratini vujudga keltiradi.

6-jadval. Mol-mulkdan olingan daromadlar bilan bog'liq ko'rsatkichlar



<b>Кўрсаткичлар</b>	<b>2018 йил</b>	<b>2019 йил</b>	<b>2020 йил</b>
Мол-мулкдан олинган даромадларнинг умумий ҳажми, трлн. сўм	10,0	11,9	12,2
Олдинги йилга нисбатан ўсиш суръати, %	133,5	137,6	123,6
Аҳолининг умумий даромадлари таркибидаги улуши, %	3,5	3,5	3,0
Мол-мулкдан олинган даромадлар таркиби, % да:			
Фоизлар ва муаллифлик ҳақи	11,6	13,8	20,1
Дивидендлар	25,9	23,3	35,1
Бошқа мулкӣ даромадлар	62,5	62,9	44,8

Yuqorida ta'kidlanganidek, aholi moliyaviy savodxonligi darajasi bevosita ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan daromad turlaridan biri mol-mulkdan olingan daromadlar hisoblanadi. Mazkur daromadlar bilan bog'liq ko'rsatkichlarni quyidagi jadval orqali kuzatish mumkin (6-jadval).

Aholi umumiy daromadlari hajmining o'zgarishiga mol-mulkdan olingan daromadlarning ta'siri juda kam. Davlat statistika qo'mitasining ma'lumotiga ko'ra, 2020 yilda mol-mulkdan olingan daromadlar aholi umumiy daromadlari hajmining 0,7% ga o'sishini ta'minlagan.

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, mol-mulkdan olingan daromadlarning umumiy nominal hajmi 2018-2020 yillarda oldingi yilga nisbatan (tegishli ravishda 133,5, 137,6, 123,6 foizga) o'sib bormoqda.

Ma'lumotlardan ko'rinadiki, tahlil qilinayotgan davrda aholi umumiy daromadlari hajmida kichik tadbirkorlikdan olingan daromadlarning ulushi Qashqadaryo va Toshkent viloyatlaridan tashqari barcha hududlarda izchil ravishda pasayib bormoqda. Bu, bir tomondan, keyingi yillarda umumiy daromadlar tarkibida tadbirkorlik bilan bog'liq bo'lmagan tavsifdagi daromadlarning nisbatan ko'payishi orqali izohlansa, boshqa tomondan, koronavirus pandemiyasining salbiy ta'siri kichik tadbirkorlikdan olingan daromadlarga nisbatan ahamiyatli bo'lganini ifodalaydi. Shunga ko'ra, fikrimizcha, aholining moliyaviy savodxonligini oshirishda tadbirkorlik faoliyati daromadlarini ko'paytirish hamda turli risklardan himoya qilish borasidagi chora-tadbirlarni kuchaytirish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Xulosa. Aholi moliyaviy savodxonligiga ta'sir etuvchi omillarni baholash hamda ularni rivojlantirish muammolarini hal etish tizimiga mualliflik

yondashuvining asosiy g‘oyasi – yondashuvning pragmatik tavsifi, ya’ni omillarni baholash ta’sir ko‘rsatish ob’ektlari va jihatlaridan kelib chiqqan holda, tegishli chora-tadbirlar ishlab chiqish bilan yakunlanishi hisoblanadi. Rasmiy statistikada keltirilgan asosiy turdagi aholi daromadlarining moliyaviy savodxonlik bilan bog‘liqlik darajasi tahlili daromad turlari ichida mustaqil ravishda band bo‘lishdan olingan daromad hamda mol-mulkdan olingan daromadlar aholi moliyaviy savodxonligi darajasiga nisbatan yuqori bog‘liq hisoblanishi aniqlandi.

### **Adabiyotlar:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 yanvardagi “Iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va iqtisodiy siyosat samaradorligini oshirishning qo‘shimcha choratadbirlari to‘g‘risida”gi PF–5614-son Farmoni.
2. Kushakova, M. N. (2020). Main directions of credit policy during the COVID-19 PANDEMY. *European Journal of Molecular & Clinical Medicine*, 7(2), 1836-1839.
3. Kushakova, M. N. (2020). Financial planning problems in enterprises. *EPRA International Journal of Economic Growth and Environmental Issues*, 8(5), 20-21.
4. Dzhumanova, A. B., Kushakova, M. N., Khodzhaeva, N. A. (2019). Formation of accounting management information in the control system of enterprises of JSC «Uzbekistan Railways. *International Journal of Advanced Science and Technology*, 28(14), 32-36.
5. Кушакова, М. Н. (2022). Анализ и методология управления обслуживающего персонала железнодорожного транспорта в республике. *Экономика и социум*, 1(92), 593-596.
6. Salimov, I. I., Kushakova, M. N. (2022). Analysis of the Problems of Innovative Development of the National Economy and Financial Stability of the Republic of Uzbekistan. *International Journal of Innovative Research in Science Engineering and Technology*, 11(2), 1603-1605.

7. Kushakova, M. N. (2022). Increasing the Efficiency of Logistics Management in Railway Transport. *ACADEMICIA An International Multidisciplinary Research Journal*, 12(2), 342- 346.